



**XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI  
ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI**

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 31 - iyul

VI-64-148-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**2023-yilning I-yarim yilligi mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118сон Farmoni ijrosi yuzasidan Angor tumanida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida**

Tumanda fuqarolar va tadbirkorlar huquq hamda qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasini ta'minlash, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, aholining odil sudlovga ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ikkinchi yo'nalishining 18-maqsadida belgilab berilgan vazifa va topshiriqlaridan kelib chiqib, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-son Farmoni ijrosi yuzasidan 2023-yilning 2-choragi davomida tumanda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i R.Xudoyqulovning bergen hisobotini tinglab va atroflicha muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tumani Kengashi sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son hamda 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-son Farmonlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. 2023-yilning 1-yarim yilligi mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-son Farmoni ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i R.Xudoyqulovning bergen hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

### 3. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (R.Xudoyqulov)ga:

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari asosida davlat foydasiga undiruvlar, shu jumladan, soliq qarzdorligi, davlat bojlari, jinoiy va ma’muriy jarimalar, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar, davlat daromadiga o’tkazilgan va yo‘q qilish bilan bog‘liq ijro hujjatlari ijrosiga alohida e’tibor qaratilsin;

- soliq qarzdorligi, “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga yo‘naltirilishi belgilangan sohalar bo‘yicha qarzdorliklar, ichki ishlar idoralari, YHXB hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatlari tomonidan qo‘llanilgan ma’muriy jarimalarni undirish bo‘yicha belgilangan reja-grafiklar ijrosi to‘liq ta’minlansin;

- soliq qarzdorligini undirishda qarzdorlarning mol-mulkleri, texnika vositalarini xatlovdan o’tkazish va sotish ishlari jadallashtirilsin;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga oid qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, bartaraf etish, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklash;

- ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga riosa etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishdan bo‘yin tovslash yoki ijro etilishiga to‘sinqinlik qilish, ijro ishi yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari boshqa tarzda buzilganligiga doir huquqbazarliklarga qarshi kurashish;

- undiruvni garov mulklariga qaratish bilan bog‘liq ijro hujjatlari bo‘yicha garov mulklarini o‘z vaqtida xatlash, savdoga chiqarish va kelib tushgan pul mablag‘larini tegishli tartibda taqsimlash choralarini ko‘rish;

- ijro hujjatlari bo‘yicha aliment majburiyatlarini bajarish, qarzdorlar tomonidan aliment majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

- aholining huquqiy madaniyatini oshirish, qonun va odil sudlovni hurmat qilish, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini so‘zsiz va ixtiyoriy ravishda bajarish zaruriyatini shakllantirish bo‘yicha bo‘lim xodimlari bilan birgalikda fuqarolarga huquqiy tushuntirishlar berish;

- majburiy ijro harakatlari jarayonida ziddiyatli va nizoli holatlarni keltirib chiqaradigan sabab va omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi, Fuqarolik ishlari bo‘yicha va Iqtisodiy ishlari bo‘yicha Sherobod tumanlararo sudlari hamda Surxondaryo tumanlararo Ma’muriy sudi tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash;

- tumandagi aholi gavjum bozorlar hamda savdo markazlarida doimiy faoliyat yuritadigan yarmarkalar, shuningdek chekka hududlarda ko‘chma yarmarkalar tashkil etish orqali ijro hujjatlari bo‘yicha xatlangan mol-mulkarni qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda sotish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (S.Choriyev) uzoq muddat davomida aliment to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlab kelgan qarzdorlarni aniqlash va ularning javobgarlik masalasini belgilangan tartibda hal etish choralarini ko‘rsin.

5. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (R.Xudoyqulov) va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov) bilan hamkorlikda bolalar huquq va manfaatlari himoya qilinishini hamda ota-onalik mas’uliyatini oshirish maqsadida aliment to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lab borilishini ta’minalash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov)ga:

- mehnat yarmarkalarini tashkil qilish orqali aliment to‘lovchi qarzdorlarni mavjud vakant ish o‘rinlariga joylashtirishning barcha choralarini ko‘rib borish;

- ishsizlikda bo‘lgan qarzdorlarni mehnat bozorida talabi yuqori bo‘lgan mutaxassisliklarga belgilangan tartibda kasbga tayyorlash yoki qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish orqali bandligini ta’minalash vazifasi topshirilsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Sh.Qaxxorov) va tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi beshliklar (MFY raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori) hamda Byuroning tuman bo‘limi xodimlari, hududdagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va mahalla faollari davlat ijrochilari ish yurituvida bo‘lgan ishlar (tadbirlar)da keng aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishda hamkorlikni yo‘lga qo‘ysinlar.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan deputatning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqib, Byuroning tuman bo‘limi xodimlari tomonidan tuman aholisi bilan joylarda bir oyda kamida bir marta ochiq muloqotlar tashkil etib borishlari ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish;

- yuqoridagilarni inobatga olib, har chorak yakuni bilan bo‘lim boshlig‘ining hisobotini dastlab, Kengashning tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilish majlislarida eshitib borish va muhokama etish hamda har olti oy yakuni bilan Kengashning navbatdagi sessiyasi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

9. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borilsin.

11. Ushbu Kengash qarorining bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Yarmatov) va xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov) a’zolari zimmasiga yuklansin.

12. Mazkur Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**